

Bolalar Sog'lig'i va Kasalliklari

21
BOB

BOLALAR SOG'LIG'INI SAQLASH UCHUN NIMA QILISH KERAK ?

TO'YIMLI OVQATLAR,



TOZALIK



VAQTIDA EMLASH



BOLALAR SOG'LIG'INI SAQLOVCHI VA ULAR ORGANIZMINI KO'P KASALLIKLARDAN HIMOYA QILUVCHI ENG ASOSIY MANA SHU UCHTA VOSITA "ORGANIZM QO'RIQCHILARI"DIR"

10 va 11 - boblarda to'yimli ovqatlar, tozalik va emlashning ahamiyati haqida ko'p yozilgan. Ota-onalar bu boblarni diqqat bilan o'qishlari va bulardan bolalarining sog'lig'ini saqlash va ularga o'rgatishda foydalanishi kerak. Asosiy joylar quyida qisqacha takror berilgan.

To'yimli ovqatlar

Bolalar yaxshi o'sishlari va kasal bo'lib qolmasliklari uchun iloji borchcha har xil ozuqali moddalarga boy ovqatlardan iste'mol qilishlari kerak.

Turli yoshdagи bolalar uchun eng yaxshi ovqatlar:

- birinchi 6 oygacha: **faqat ko'krak suti**, boshqa hech narsa kerak emas.

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

- 6 oydan 1 yoshgacha: **ona suti**, qaynatilgan kasha, ezilgan loviya, tuxum sarig'i, go'sht, pishirilgan meva va sabzavotlar singari ovqatlar.
- 1 yoshdan keyin: bola **kattalar singari ovqatlanishi mumkin, lekin tez-tez**. Asosiy ovqat(guruch, makka, bug'doy, kartoshkalar)ga 10-bobda aytilgan „yordamchi ovqatlar”dan qo'shing.
- Muhimi, bola kunda bir necha mahal **yetarli** ovqatlanishi kerak.
- Barcha ota-onalar ovqatga yolchimaslik belgilarini kuzatib borishlari va bolaga iloji boricha yaxshi ovqat berishga harakat qilishlari zarur.

Tozalik

Agar bola yashab turgan qishloq, uy va bolaning o'zi toza bo'lsa, uning doim sog'lom bo'lishiga kafolat bor. 12-bobda aytilgan tozalik qoidalariга rivoja qiling. Bolangizga ularga rivoja qilishni o'rgating va tozalikning ahamiyatini tushunishga yordam bering. Eng asosiy qoidalarni yana bir bor eslatib o'tamiz:

- Bolalarni tez-tez cho'miltiring va ust-boshini almashtirib turing.
- Bolaga ertalab o'rnidan turganida, bo'shangandan so'ng va ovqatlanishdan oldin qo'lini yuvishni o'rgating.
- Bolalarga hojatxonadan foydalanishni o'rgating.
- Gijja bor joylarda bolalar yalang oyoq yurmasin; ular shippak yoki tuqli kiyishi kerak.
- Bolalarni tishini doim yuvib yurishiga o'rgating; ularga qand, shirinlik yoki gazli ichimlik (fanta, koka kola) larni ko'p bermang.
- Tirnoqlarini kalta qilib olib qo'ying.
- Kasal, yaralari, qo'tir yoki temiratkisi bor bolani boshqa bolalar bilan birga uqlashiga yoki bitta kiyim, sochiqni ishlatalishiga yo'l qo'ymang.
- Boladagi qo'tir, temiratki, qurt va boshqa yuqumli kasalliklarini tezda davolating.
- Bolaning iflos narsalarni og'ziga solishiga va it, mushuklar betini yalashiga yo'l qo'ymang.

- Qo'y, mol, it va tovuqlarni uydan narida boqing.
- Ichish uchun faqat toza, qaynatilgan yoki filtrlangan suv ishlating. Ayniqsa bu, yosh bolalar uchun ahamiyatlidir.
- Bolalarni „bolalar shishasi”dan ovqatlantirmang, chunki uni toza saqlash qiyin va u ko'pgina kasalliklarga sababchi bo'lib qolishi mumkin. Bolalarni piyola va qoshiqcha bilan ovqatlantiring.

Emlash

Emlash bolalarni ko'kyo'tal, bo'g'ma (difteriya), qoqshol, bolalar falaji, qizamiq va sil kabi eng xavfli kasalliklardan saqlaydi.

273-betda ko'rsatilganidek bola halyotining birinchi oylarida turli emliklar olishi kerak. Falajga qarshi tomchilar, iloji bo'lsa, bola tug'ilishi bilan yoki 2 oylik bo'lguncha berilishi kerak, chunki 1 yashargacha bo'lgan bolalarda falaj (shol) kasalligiga chalinish xavfi ko'proq.

Muhim eslatma: To'la himoya uchun AKDS (bo'g'ma, ko'kyo'tal, koqshol) va sholga qarshi emdorilar, 3 oy davomida har oyda va bir yildan so'ng yana bir marta berilishi kerak.

Onaning homiladorlik chog'ida, qoqsholga qarshi emlash yo'li bilan ch-aqaloq qoqsholining oldini olish mumkin. (350-bet).

QUYIDAGINI BAJARING



poliomielitga
qarshi emlang

VA BU
HOLATNING
OLDINI
OLING

**Bolalaringizning hamma kerakli emdorilarni olganiga
e'tibor bering.**

BOLALARNING O'SISHI VA "SALOMATLIK SARI YO'L"

Sog'lom bola bir maromda o'sadi. Agar bola, to'yimli ovqatlarni yetarlicha iste'mol qilsa va jiddiy kasalliklari bo'lmasa, uning vazni har oyda ortib boradi

Yaxshi o'sayotgan bola sog'lomdir.



Boshqa bolalarga nisbatan sekinroq vazni ortayotgan, umuman vazni ortishdan to'xtagan yoki, aksincha, vazn yo'qotayotgan bola kasaldir. U yetarlicha ovqatlanmayotgan, jiddiy kasallangan bo'lishi yoki unda shu ikkala holat ham birga bo'lishi mumkin.

Boshqa bolalarga nisbatan sekinroq vazni ortayotgan, umuman vazni ortishdan to'xtagan yoki, aksincha, vazn yo'qotayotgan bola kasaldir. U yetarlicha ovqatlanmayotgan, jiddiy kasallangan bo'lishi yoki unda shu ikkala holat ham birga bo'lishi mumkin.

Bolaning sog'lom ekanligini va yetarlicha to'yimli ovqat iste'mol qilayotganini tekshirishning eng yaxshi yo'li uni har oyda tortib turish va vaznining me'yordagidek ortib borayotganini tekshirishdir. Agar bolaning oylik vazni "Bola sog'lig'i jadvali"da belgilab borilsa, bir qarashdayoq bolaning vazni me'yordagidek ortayotgan yoki ortmayotganini ko'rish mumkin.

Agar to'gri ishlatsa, bu jadval ona va tibbiyat xodimlariga bola qachon me'yordagidek o'smayotganini ko'rsatadi va ular shunga qarab muolaja choralarini ko'radilar. Ular bolaning yetarli ovqatlanayotganiga e'tibor berishi yoki unda bo'lishi mumkin bo'lgan turli kasalliklarni tekshiriши va davolashlari mumkin.

Keyingi betda „SALOMATLIK SARI YO'L”ni ko'rsatuvchi "Bola sog'lig'i jadvali" berilgan. Bu jadvalni qirqib olish va nusxa ko'chirish mumkin. Ko'pgina mamlakatlarda bolalar poliklinikalari ana shunday jadvallarni mahalliy aholi tilida chiqarib turadi.

Onalar uchun 5 yoshgacha bo'lgan har bir bolaga "Bola sog'lig'i jadvali" tutish foydalidir. Agar yaqin orada sog'lomlashtirish markazi yoki „Bolalar shifoxonasi” bo'lsa, ona bolalarini har oyda vaznni o'chish uchun, bolalar jadvallarini olib, poliklinikaga chiqishi va u yerda bolalarni

ing vaznini jadvallarda belgilab qo'yishi kerak. Tibbiyot xodimi jadvalni va uning ishlatilishini tushuntirib berishi mumkin. Jadvalni yaxshi saqlash uchun sellofan paketga solib yuring.



UYDA QILINGAN QO'LBOLA TAXTALI TAROZI

Siz tarozini oddiy quruq yog'ochdan qilishingiz mumkin. Rasmda ko'ssatilgandek qilib, barcha ilmoqlarni joylashtiring va tarozini ilib qo'ying. Kilogrammlarni taxtada belgilash uchun 2 ta 1 litrli plastik idishga suv quying. Birinchi idishni bola ilinadigan joyga, ikkinchisini esa, nargi uchiga osing va ikkalasini muvozanatga keltiring. Teng kelgan joyini taxtada 1 kg deb begilab qo'ying va shu tartibda davom eting. Chizg'ich yordamida belgilar orasidagi masofani o'lchab 200, 400, 600 va 800 g. larni belgilang.

OG'IRLIKNI O'ZI YOZA-DIGAN TAROZI (TALC tashkilotidan olsa bo'ladi)

Bola sog'lig'i jadvali tarozning orqasida yuradi, shunda siz bolaning og'irligini to'g'ridan to'g'ri jadvalga kiritishingiz mumkin.

Bu va boshqa tarozlarni iloji boricha yerga (polga) yaqinroq balandlikda osgan ma'qul. Chunki bola balandlikdan qo'rqib ketishi mumkin.



Taxta tarozi gorizontal tursa, vazn to'g'ri o'lchanayotgan bo'ladi.

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

BIRINCHI TARAF

EMLANISHLAR	
BSJ	
	birinchi doza ikkinchchi doza uchinchchi doza to'rtinchchi doza
POLIO (SHOL)	
AKDS	bo'g'ma ko'yo'tal qoqshol
ONANI QOQSHOLGA QARSHI EMLASH	birinchi doza ikkinchchi doza uchinchchi doza
SUV TIKLOVCHI ICHIMLIK BERISH VAQT	
O'qitilgan Ishlatilgan	





BOLA SOG'LIG'I JADVALI

17																									
16	Bolaning ismi:	Kun	Oy	Yili	Vazni		o'g'il	qiz																	
15	Tug'ilgan kuni:																								
14	ONASINING ISMU																								
13	ONASI BO'LMASA PARVARISH																								
12	QILAYOTGAN ODAM																								
11	OTASINING ISMU																								
10	BOLA QAYERDA TURADI?																								
9	Onaning nechta bolasi bor edi?																								
8	Nechtasi yashayapti?																								
7	Nechtasi nobud bo'lgan?																								
6	KARTA KIM TOMONIDAN ONAGA BERILDIV A O'QTILDI?																								
5	QUYIDAGI SABABLARGA KO'RVA BOLAGA QO'SHIMCHA ETIBOR BERILISHI KERAK BO'LGANNI? SABABLAR TO GRISIDA ONADAN SO'RANG (to'g'ri favobni doiraga olib qo'ying)																								
4	Bola tug'ilganda 2,5 kg dan kam edimi.....																								
3	Bu bola sigzakmi?.....																								
2	Bola butikadan ovqatantif haddim?.....																								
1	Ona oltaning yordamiga muhim?.....																								
0	Bolaning opa, yoki akalari, vazirda yetishmovalchik bormi?.....																								
1	Qo'shimcha etibor berilishiiga boshqa sabablar bormi?.....																								
2	Masalan: sil, mohov yoki ijtimoiy muannollar																								
3																									
4																									
5																									
6																									
7																									
8																									
9																									
10																									
11																									
12																									
13																									
14																									
15																									
16																									
17																									

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

IKKINCHI TARAF






IKKINCHIDAN, bola vaznini o'lchang.

Aytaylik, bola aprelda tug'ilgan. Hozir avgust va bola og'irligi 6 kg.



Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Kilogrammlar jadvalning bir tomonida yozilgan. Bola vazni raqamini toping (jadvalda 6 kg).




So'ng hozirgi oyni pastki qatoridan toping (bu holatda avgust bola tug'ilgan yilning birinchisidir).

TO'R TINCHIDAN,


6 dan va

Avgust oyidan boshlangan chiziqlarni tekshiring (tutashtiring).



Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013


Agar siz to'rtburchak qog'ozni olib jadval ustiga qo'ysangiz, nuqta qo'yiladigan joyni topish osonlashadi.



Har oyda bolaning og'irligini o'lchang va jadvalda belgilab bering.

Agar bola sog'lom bo'lsa, har oyda yangi nuqta oldin-giga nisbatan teparoqda bo'ladi.

Bola qanchalik yaxshi o'sayotganini ko'rmoqchi bo'lsangiz, nuqtalarni chiziq bilan birlashtiring.



“Bola sog‘lig‘i jadvali”ni qanday o‘qish kerak?


Jadvaldagagi yoy singari ikki chiziq bolaning „SALOMATLIK SARI - YO‘LI”ni belgilaydi va bolaning vazni shunday ketishi kerak.

Nuqtalar birlashmasidan qilingan chiziq bola og‘irligini oy sayin, yil sayin ko‘rsatib boradi.

Ko‘p sog‘lom bolalarning nuqtali chiziqlari 2 uzun yoy chiziq orasida bo‘ladi, shuning uchun bu ikki chiziq orasidagi joy „SALOMATLIK SARI YO‘L“ deb ataladi.

Agar nuqtali chiziq bir marmoda oyma-oy yoy chiziqlari bilan bir yo‘nalishda ketsa, bu ham bolaning sog‘lom ekanligining belgisidir.

Yetarli to‘yimli ovqatlardan iste’mol qilgan **sog‘lom bola** odada quyida ko‘rsatilgan vaqlarda taxminan o‘tirishni, yurishni, gapirishni boshlaydi.



Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

SOG'LOM, YAXSHI

OZIQLANGAN

BOLANINING Yordamsiz 10 qadam yuradi
o'sish jadvali.

Hech qan-day
yordamsiz
o'tiradi



6 dan 8 oygacha

Sog'lom, yaxshi
oziqlangan bolanining vazni bir
maromda ortib
boradi.
Nuqtalar odatda
„SALOMATLIK
SARI YO'L“ ichida
bo'ladi.

Yordamsiz 10
qadam yuradi



12 dan 16
oygacha


Dastlabki ayrim
yakka so'zlar.



Qisqa so'z
brikmalari




uch yoshda



Pastda berilgan jadval ovqatga yolchimaydigan, **kasalmand bolariki** bo'lishi mumkin. E'tibor bering, nuqtali chiziq (vazni) „SALOMATLIK SARI YO'L“dan pastda joylashgan. Chiziq ham bir tekis emas va uncha ko'tarilmagan. Bu bolanining xavfli holatda ekanligini ko'rsatmoqda.

VAZNI YETARLI DARAJADA
BO'LMAGAN YOKI OVQATGA
YOLCHIMAGAN BOLAning oddiy
jadvali.




Agar bola jadvalining ko'rinishi mana shu jadvalga o'xshagan bo'lsa, unda jiddiy vazn yetishmasligi kuzatiladi. Balki, u yetarlicha ovqatlanmayotgandir yo sil, bezgak kabi kasalliklar bilan og'riyotgandir. Ehtimol, har ikkalasi hamdir. Unga **ko'p quvvat beradigan to'yimli ovqatlardan tez-tez berib turish kerak**. Shuningdek u har ehtimolga qarshi tekshirilishi, hamda bola jadvalida uning vazni bir me'yorda ortayotganini ko'rsatadigan bo'lguncha tez-tez tibbiyot xodimiga ko'rsatib turilishi kerak.

MUHIM: Nuqtali chiziqning yo'nalishiga e'tibor bering.


Chiziqning yo'nalishi, ikki yoy chiziq ichida yoki pastida bo'lgan nuqtalarga nisbatan bolaning sog'lig'i to'g'risida ko'proq ma'lumot beradi.

XAVFLI! Bu bola vazni ortmayapti.




Nuqtalar yoy chiziqlar ichida bo'lishiga qaramay, bolaning vazni bir necha oydan beri ortmagan.

YAXSHI! Bu bolaning vazni ko'ngildagidek.



Nuqtalar yoy chiziqlaridan pastda bo'lishiga qaramay, tepaga qarab ketayotgan chiziq yo'nalishi bola yaxshi o'sayotganini ko'rsatyapti. Ba'zi bolalar tabiatan boshqa bolalarga nisbatan kichikroq bo'ladi. Balki bu bola ota-onasining bo'yi ham o'rtachadan ko'ra pastroqdir.



BOLANING RIVOJLANISHINI KO'RSATUVCHI "BOLA SOG'LIG'I JADVALI"ning oddiy turi

Bu chaqaloq bir-inchi 6 oy davomida sog'lom va vazni bir me'yorda ortib borgan, chunki onasi uni emizar edi.

Bola 6 oyligida ona yana homilador bo'lib qoldi va uni emizmay qo'ydi. Bolaga bug'doy va guruchdan biroz ko'proq berib oziqlantirildi. Uning vazni ortmay qo'ydi.

10 oylik bo'lganida surunkali ich ketarga chalindi va vaznini yo'qota boshladidi. U juda ozg'in va kasalvand bo'lib qoldi.

Bola 13 oylik bo'lganda ona bolaga yetarli ovqat berish qanchalik muhimligini tushundi. Uning vazni tez orta boshladidi. Ikki yashar bo'lganida u yana "SALOMATLIK SARI YO'Liga qaytdi.

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

emizilgan
bola

yomom
oziqlangan

ich ketishga
ucharagan

yaxshi
oziqlangan



vazn ortishi




vazni kam
ortgan



vazn
yo'qotgan



vazni
yaxshi ortgan



6 oyligida emizish
to'xtatilgan

10 oyligida ich
ketar boshlag-
an

13 oyligida to'yimli ovqatlar bilan
ovqatlantirish boshlangan

Bola sog'lig'i jadvali" juda muhim. **Undan to'g'ri foydalanilsa, u bo-lalarga qachon ko'proq to'yimli ovqatlar berib, ko'proq e'tibor qil-ish kerakligini bilib olish uchun onalarga yaqindan yordam beradi.** Jadval shuningdek, tibbiyot xodimlariga bolani va uning oilasi ehtiyojlarini tushunishga yordam beradi. Undan ona qachon bolasini yaxshi parvarish-layotganini bilishi mumkin.

KICHIK, MUDDATIDAN OLDIN VA VAZNI OZ BO'LIB TUG'ILGAN BOLALARGA E'TIBOR

Juda kichik (2,5 kg. dan yengil) tug'ilgan bolalarga maxsus e'tibor kerak. Agar iloji bo'lsa, bolani shifoxonaga olib boring. Shifoxonada bunday bolalar odatda inkubator deb ataladigan iliq, himoyalovchi va harorati nazoratda turadigan moslamada saqlanadi. Lekin, sog'lom bo'lgan bolalarni ona doim bag'riga bosish yo'li bilan ham himoya qilishi va isitishi mumkin:

- ◆ Bolani yalang'och qilib, yo'rgagi bilan yoki usiz ikki ko'kragingiz orasiga oling va ust-boshlar tagiga, teringiz ustiga qo'ying. (Keng ko'yak, sviter kiyish yoki belingizni bog'lab olish yordam beradi.)
- ◆ Bola xohlagancha tez-tez emib tursin, kamida har 2 soatda bir martadan.
- ◆ Belingizni ko'tarib (yarim o'tirgan holda) uxiang. Bola tepaga qaragan bo'lsin.
- ◆ Bolaning yuzi va ostini har kuni yuvib turing.
- ◆ **Bola doim iliq turayotganiga e'tibor bering.** Agar havo sovuq bo'lsa, bolaga qo'shimcha ust-bosh kiydirib boshini o'rab qo'ying.
- ◆ Siz dam olayotgan yoki cho'milayotganingizda otasi yoki boshqa oila a'zosi bolani bag'riga bosib tursin.
- ◆ Bolani tibbiyat xodimining oldiga tez-tez olib borib turing. U barcha emdorilarini olayotganiga e'tibor bering (273 -bet).
- ◆ Bolaga temir moddasi bo'lgan mahsulotlardan, vitaminlardan, ayniqsa, D vitaminidan (706-bet) berib turing.

BOSHQA BOBLARDA MUHOKAMA QILINGAN MUMMOLARNI BOLALAR SOG'LIG'I NUQTAI NAZARIDAN QAYTA KO'RIB CHIQISH

Kitobning boshqa boblarida aytib o'tilgan ko'plab kasalliklar bolalarda ham topiladi. Quyida tez-tez uchrab turadigan kasalliklar qisqa-cha qilib berilgan. Har bir muammo haqida ko'proq ma'lumot olmoqchi bo'lsangiz, ko'rsatilgan betlarga qarang.


Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning muammolari va ularga beriladigan maxsus e'tibor haqida ma'lumot olish uchun 491- dan 500-betgacha, 546, 742-betlarga qarang.

Esingizda tuting. Bolalarda kasalliklar, odatda, juda tez jiddiy tus oladi. Katta odamni bir necha kun yoki haftada hayotdan olib ketadigan, unga anchagina zarar yetkazadigan kasallik, bolani bir necha soatda nobud qilib qo'yishi mumkin. Shuning uchun kasallikning **dastlabki belgilarni bilib olish va ularga vaqtida e'tibor berish zarur.**

Ovqatga Yolchimagan Bolalar

Ba'zi bolalar yetarlicha ovqatlanmasligi tufayli zarur oziq moddalariga yolchimay qoladilar. Ular asosan, mastava, non kabilarni ko'p iste'mol qiladilar va bola organizmga kerakli bo'lgan quvvatni olmay turib to'yib qoladi. Shuningdek, ba'zi bolalar ovqatida A Vitamini (705-bet), yod (682-bet) kabi ma'lum moddalar yetishmasligi mumkin. Bolalarga kerakli ovqatlar to'g'risida ko'proq ma'lumot olish uchun 11-bobni, ayniqsa, 236-dan 240-betgacha o'qing.

UNCHA JIDDIY EMAS



kichkina

vazni yetarli
emas

qorni katta

qo'llari va oyo-
qlari ozg'in

ko'rinishi ma'yus

vazni yetarli emas
shishish
natijasida (uning
vazni, bir qancha
vaqt ortishi mum-
kin)

qoramtil dog'lar
tushib, terisi po'st
tashlab turadi
yoki yaralar pay-
do bo'lib, oyoqlari
shishadi

JIDDIY



Ovqatga yolchimaslik bolalarda quyidagi ko'pgina muammolarga sababchi bo'lishi mumkin:

Yengil hollarda:

- sekinroq o'sish
- qorin shishish
- ozg'inlik
- ishtaha yo'qligi
- quvvat yo'qligi
- rang ketishi (kamqonlik)
- kesak yeishiga moyillik (kam

Xavfliroq hollarda:

- umuman vazn ortmasligi yoki
- sekin ortishi
- oyoqlar (ba'zan yuzning ham)
- shishishi
- to'q ko'kimtir dog'lar, „ko'kar-
ishlar”,
- yoki yaralar paydo bo'lishi

- qonlik)
- og'iz-lablar bichilishi
- tez-tez shamollahash va boshqa
- infeksiyalar
- shabko'rlik
- soch to'kilishi yoki soch siyrakligi
- og'iz ichidagi yaralar
- normal aqlning rivojlanmasligi
- „ko'zlarning qurishi”
- (kseroftalmiya)
- ko'rlik (415-bet)

Umuman ovqatga yolchimaslikning og'ir ko'rinishlari va turlari. Ular keltirib chiqaradigan muammolar va bularning oldini olish haqida 224- va 227-betlarda aytib o'tilgan.

Ovqatga yolchimaslikning birinchi belgilari ich ketar yoki qizamiq kabi og'ir kasalliklardan so'ng bilinadi. Kasal bo'lgan va tuzalayotgan bolalar sog'lom bolaga nisbatan yaxshi sifatli ovqatga ko'proq muhtojdirlar.

Ovqatga yolchimaslikning oldini olish va davolash uchun bolalar ingizga TEZ-TEZ, YETARLI OVQAT BERING. Bola iste'mol qiladigan asosiy ovqatga yog' kabi yuqori quvvat beradigan ozuqalar dan qo'shing. Shuningdek, loviya, mosh, meva, sabzavot va iloji bo'lsa sut, tuxum, baliq, go'sht kabi "tana tiklovchi" va "himoy- alovchi" ovqatlardan qo'shishga harakat qiling.

Ichburug' Yoki Qon Aralash Ich Ketish

(to'laroq ma'lumot uchun 285-dan 295-betgacha qarang)

Ich ketar bilan og'riyotgan bolalar uchun eng katta xavf, bu **suvsizlanishdir**. Agar bola qayt qilayotgan bo'lsa, bu yana ham xavfliroq. Bemorga "**Suv tiklovchi ichimlik**"dan bering (283-bet). Agar bola emadigan bo'lsa, **emizishni davom ettiring** va qo'shimcha "Suv tiklovchi ichimlik"dan ham bering.

Ich ketarga chalingan bolalar uchun ikkinchi xavf - bu ovqatga yolchimay qolish. Bola to'yimli ovqatdan qancha yesa, shuncha bering.



Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

Isitma (167-betga qarang).

Kichkina bolalarda yuqori (39° S dan ortiq) harorat bo'lganida talvasa boshlanishi mumkin. Haroratning 40° S dan ortib ketishi, ba'zan miyaning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Haroratni pasaytirish uchun **bolaning kiyimini yeching**. Agar u bezovtalaniib, yig'layotgan bo'lsa, unga to'g'ri miqdordagi **Paracetamol** (Atsetominofen) yoki Aspirin (651-betga qarang) va ko'proq suyuqlik bering. Agar u juda issiqlagan va qaltirayotgan bo'lsa, **badanini sovuqroq (juda sovuq emas)** suv bilan ho'llang va yelping.



Talvasaga Tushish (titrash) (331-betga qarang).


Buning sabablari yuqori harorat, suvsizlanish, epilepsiya(tutqanoq) va meningit kabi kasalliklar bo'lishi mumkin. Agar harorat yuqori bo'lsa uni tezda tushiring (167-bet). Suvsizlanish (281-bet) va meningit (351-bet) kabi kasalliklarning belgilari bor-yo'qligini tekshiring. Agar bola hech qanday isitmasiz birdaniga talvasaga tushib qoladigan; ammo boshqa vaqtarda odatdagidek yaxshi yuradigan bo'lsa, bu epilepsiya (tutqanoq, quyanchiq) bo'lishi mumkin(331-bet). Dastlab jag'dan boshlanib, so'ng butun tananing titrab qotishi qoqshol bo'lishi mumkin. (347-bet).



Meningit (351-bet)

Ushbu xavfli kasallik qizamiq, tepki va boshqa jiddiy kasalliklarning asorati natijasida kelib chiqishi mumkin. Sil kasalligi bilan og'riyotgan onalarning bolalari sil meningiti bilan og'rib qolishlari mumkin.

Juda kasal holatdagi bola boshini orqaga bo'yni qotib qolganligi sababli boshni oldiga egib bo'lmasa, shuningdek tanasi g'alati harakatlar (titrashlar) qilsa, bunday hollarda meningit bo'lishi mumkin.



Kamqonlik (242-bet).

Bolalardagi umumiy belgilari:

- rangi o'chishi, ayniqsa, ko'zning ichlari, milklari va tirnoqlar taglari rangining o'chishi.
- bolaning nimjon, tez charchaydigan bo'lib qolish
- kesak yejishni yoqtirishi



Umumiy sabablari:

- temir moddasini oz iste'mol qilish (242-bet).
- surunkali ichak infeksiyalari (269-bet).
- qurtlar, ayniqsa ankilostoma kabi (265-bet).

Oldini olish va Davolash:


- ◆ Go'sht, o'rdak tuxumi kabi temir moddasiga boy ovqatlardan iste'mol qiling. Shuningdek, loviya, no'xat, mosh, o'rik qoqi, qizil loviya, yer yong'oq va to'q yashil bargli o'simliklar tarkibida ham biroz temir bor.
- ◆ Anemiya sabablarini yo'qoting, gjjjalar ko'p bo'lgan joylarda yalang oyoq yurmang.
- ◆ Qora choy ichmang.
- ◆ Agar siz, gjjjalar borligini taxmin qilayotgan bo'lsangiz, tibbiyot xodimi bola axlatini mikroskop ostida tekshirib berishi mumkin. Agar unda gjija tuxumlari bo'lsa, bolani gjijaga qarshi davolang. (717-720-betlar).
- ◆ Vitamin S (Л) ga boy bo'ladigan, bulg'or qalampiri, tut, qovun, tarvuz, qulupnay, pomidor, o'rik kabi ovqatlar qonga temir moddasini singishini ko'paytiradi. Ulardan iste'mol qiling.
- ◆ Agar kerak bo'lsa, ichgani tarkibida temir moddasi bo'ladigan tabletkalardan bering (temir sulfat, 702-703-betlar).

EHTIYOT BO'LING: Chaqaloq yoki yosh bolaga tarkibida temir moddasi bor tabletkalarni butun holicha bermang. Ularni ezib ovqatga qo'shib bering.

Qurt(gijja)lar Yoki Boshqa Ichak Parazitlari (262-betga qarang).

Agar oilada bitta bolaning qurtlari bo'lsa, butun oila davolanishi kerak. Qurtlarni keltirib chiqaradigan infeksiyalarning oldini olish uchun bola:


- ◆ Tozalik qoidalariga rioya qilishi (253-bet);
- ◆ Bo'shalish uchun faqat hojatxona (tualet) ga borishi va hech qachon boshqa joyda bo'shammasligi;
- ◆ Hech qachon yalang oyoq yurmasligi;
- ◆ Hech qachon chala pishirilgan go'sht, baliq emasligi;
- ◆ Faqat qaynatilgan yoki toza suv ichishi kerak;
- ◆ 2 yosh yoki bundan katta bolalarni Mebendazol tabletkalari bilan davolang.



Teri Muammolari (15-bobga qarang).

Bolalarda quyidagilar ko'p uchraydi:

- ◆ infeksiya tushgan yaralar va impetigo (sachratqi) (383-384 betlar).
- ◆ temiratki va zamburug' natijasida kelib chiqadigan boshqa kasalliklar. (387-bet).



Teri kasalliklarining oldini olish uchun tozalik qoidalariga rioya qiling (253-bet).

- ◆ Bolalarni tez-tez cho'miltiring va bitni yo'qoting.
- ◆ Burga, bit va kanalarning paydo bo'lishiga yo'l qo'y mang.
- ◆ Temiratki yoki infeksiya tushgan yaralari, biti bor bolalarni boshqa bolalar bilan o'ynashi va uxlashiga yo'l qo'y mang. Ularni vaqtida davolang.

O'tkir Yuqumli Konyuktivit (ko'z shilliq pardasining yallig'lani-shi). (411-betga qarang).

Ko'z qovoqlarini bir kunda bir necha marta toza ho'llangan latta bilan artib turing. Antibiotikli mazni (680-bet) ko'z ichiga 4 mahal qo'ying. Konyuktiviti bor bolani boshqa bolalar bilan o'ynashi va uxlashiga yo'l qo'y mang. Agar u bir necha kunda tuzalib ketmasa, tibbiyot xodimiga uchrang.



Shamollash va „Gripp” (302-betga qarang).

Burun oqishi, biroz harorat ko'tarilishi, yo'tal, tomoq og'rig'i va ba'zan ich ketish bilan kechadigan shamollash, bolalarda tez-tez uchradigan, ammo jiddiy bo'lmagan kasalliliklardandir.



Ko'p suyuqlik berish bilan davolang. Agar kerak bo'lsa, og'riq yoki haroratni pasaytirish uchun paratsetamol yoki aspirin berganingiz ma'qul (651- bet). Yotishni xohlovchi bolalarga yotishga ruxsat bering. Yaxshi ovqat va mevalar bolalarning tez tuzalishi va tumov shamollahning oldini olishga yordam beradi.

Penitsillin, Tetratsiklin va boshqa antibiotiklar oddiy tumov yoki „grippga qarshi hech qanday ta'sir qilmaydi. Odam tumov bo'lganida ukol qilish kerak emas.


Agar bolaning shamollashi zo'rayib, harorati ko'tarilsa, qisqa, tez-tez, ya'ni hansirab nafas olsa, u **zotiljam**(pnevmoniya) bo'lib qolgan bo'lishi mumkin va bunda antibiotiklar berilishi kerak. Shuningdek, quyida ko'rsatib o'tilgan qulqoq infeksiyalari va angina (keyingi bet) belgilari bor-yo'qligini ham tekshirib ko'ring.

BOSHQA BOBLARDA TILGA OLINMAGAN, AMMO BOLALAR SOG'LIG'I BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

QULOQ OG'RIG'I VA QULOQ INFEKSIYALARI

Quloq infeksiyalari yosh bolalar-da ko'proq uchraydi. Ko'pincha, infeksiya shamollashdan bir necha kun keyin burun bitishi yoki shilimshiqqa to'lib qolishidan so'ng boshlanadi. Harorat ko'tariladi va bola ko'pincha yig'laydi yoki boshining bir tomonini ishqalayveradi.

Ba'zan qulog'ida yiring ko'rindi. Kichki-na bolalarda, quloq infeksiyasi qayt qilish yoki ich o'tishiga sabab bo'lishi mumkin. Shunday qilib, agar bolaning ichi ketsa va harorati yuqori bo'lsa, uning quloglarini ham tekshirib ko'ring.



Davolash:

- ◆ Quloq infeksiyalari juda o'griqli bo'lishi mumkin. Uni vaqtida davolash juda muhim. Agar bolaning umumiy sog'lig'i yaxshi bo'lsa, ko'pincha kasal o'zi tuzalib ketadi. Ampitsillin yoki Amoksitsillin (634-bet), T-iseptol tabletkalari kabi antibiotiklar bering. Og'riqqa qarshi Paracetamol (651-bet) bering. Aspirin ham ishlatalishi mumkin, ammo uning salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli bor. (649-bet).
- ◆ Agar bolaning umumiy sog'lig'i yaxshi bo'lmay, quloq bir necha kun ichida tuzalib ketmasa yoki quloq yiringlasa yoki qonasa, kotrimoksazol yoki amoksitsillin bering. **Olti oy va undan kichik va qulog'ida infeksiya bor bolaga albatta antibiotik berilishi kerak.**
- ◆ Quloq yiringini paxta bilan juda ehtiyoj bo'lib, ohista tozalang, lekin qu-loqqa paxtali tampon, cho'p, barg yoki boshqa biror narsa tiqb ko'mang.
- ◆ Quloglaridan yiring oqayotgan bolalar, odaddagicha cho'miltirilishi kerak, ammo tuzalganlaridan so'ng ham kamida 2 hafta davomida suvda suzishlari va sho'ng'ishlari mumkin emas.

Oldini olish:

- ◆ Bolalar shamollaganda burunlari oqadi. Ularning burunlarini **qoqmas-dan** artishga o'rgating.

- ♦ Chaqaloqlarni so'rg'ichli shisha orqali ovqatlantirmang. Ovqatlantirayot-ganiningizda bolani chalqancha yotqizmang, chunki sutuning burniga kirib ketishi va quloq kasalligiga olib kelishi mumkin.
- ♦ Bola burni to'lib qolganida, namakob tomizing va shilimshiqni 303-betda ko'rsatilgandek so'rdirib olib tashlang.


Quloq kanalidagi infeksiya:

Quloq kanali, ya'ni tashqi eshituv yo'lida infeksiyaning bor-yo'qligini bilish uchun sekkingina quloqni tortib ko'ring. Antibiotik tomchilarini yoki bir qoshiq oq uksus 10 qoshiq suv 10 qoshiq spirit bilan aralashtirib quloqqa tomizing 3-4 mahal 3-4 tomchidan tomizing. Agar bundan og'riq sezilsa, demak, kanal infeksiyalangan. 3-4 kun davomida yaxshi natijaga erishmasangiz mutaxassis shifokorga murojaat qiling.

TOMOQ OG'RIG'I VA BODOMCHA BEZLARNING INFEKSIYALANISHI

Bu muammolar ko'pincha oddiy tumov bilan boshlanadi. Tomoq qizarishi va bola yutin-ganda og'rishi mumkin.

Bodomcha bezlar (tomoq orqa qismining ikki tarafida joylashgan bezga o'xshash ikkita limfa tuguni) kattalashishi, og'rishi yoki yiring boylashi mumkin. Harorat 40°S gacha ko'tarilishi mumkin.



Davolash.

- Namakob suv bilan tomog'ingizni chayqang (g'arg'ara qiling) (250 ml. suvg'a 1 choy qoshiq tuz).
- Og'riqqa qarshi paracetamol yoki aspirin iching.
- Agar og'riq va isitma birdaniga ko'tarilsa yoki 3 kundan ko'p davom etsa, quyidagi ma'lumotlar foydali bo'lishi mumkin.

Tomoq og'rig'i va revmatik isitmaning' xavfi:

Oddiy tumov yoki gripp (burun oqishi, chuchkirish) bilan keladigan tomoq og'rig'ini davolashda, odatda antibiotiklar ishlatilmaydi va ular

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

yaxshi ta'sir qilmaydi. Tomoqni chayqash va paratsetamol (yoki aspirin) ichish bilan davolaning.

Ammo, tomoq og'rig'ining bir turi, ya'ni **angina** penitsillin bilan davolanishi kerak. U odatda bolalar va yoshlarda uchraydi. Aksari birdan-iga, qattiq tomoq og'rig'i va yuqori harorat bilan (ko'pincha yo'talsiz yoki shamollash belgilarisiz) boshlanadi. Og'iz orqasi va bodomcha bezlar juda qizarib ketadi va jag' osti yoki bo'yin limfa bezlari shishib chiqishi yoki og'rishi mumkin. Odatda bunda burun oqishi, yo'tal kabi tumov belgilari bo'lmaydi.

10 kun davomida penitsillin tabletkasidan bering (629-bet). Agar penitsillin vaqtida berilgan bo'lsa va 10 kun davom ettirilsa, tomoq og'rig'ining revmatik isitmaga o'tish xavfi kamroqdir. Anginasi bor bola, kasalini boshqalarga yuqtirmaslik uchun boshqa odamlardan uzoqroqda ovqatlanishi kerak.

REVMATIK ISITMA

Bu bolalar va yoshlar kasalligi hisoblanadi. U odatda, odam angina bo'lganidan so'ng 1 haftadan 3 haftagacha bo'lgan vaqt davomida boshlanadi (yuqoridagi ma'lumotga qarang). Angina to'g'ri davolanmagan.

Asosiy belgilari (odatda bularning ba'zilari namoyon bo'ladi):

- isitma
- bo'g'imlarda og'riq, ayniqsa, bilak va to'piqlar, keyinchalik esa, tizza va tirsak bo'g'imlarida og'riq turishi. Bo'g'imlar shishadi va ko'pincha qizib, qizarib ketadi.
- teri ostida egri qizil chiziqlar yoki shishlar paydo bo'ladi.
- jiddiyroq hollarda quvvatsizlik, hansirash va hatto yurak og'rig'i bo'ladi.



Davolash:

- ◆ Agar revmatik isitma borligini taxmin qilsangiz tibbiyot xodimiga murojaat qiling. Yurakning shikastlanish xavfi bor.
- ◆ Katta miqdorlarda aspirin qabul qiling (649-bet). 12 yashar bola 500 mg. lik tabletkalarni 1-2 tadan kuniga 6 mahal ichishi mumkin. Qorinni og'ritmaslik uchun ularni sut yoki ovqat bilan iching. Agar quloqlaringiz shang'ilay boshlasa, dorini kamroq iching.
- ◆ Penitsillin bering (629-bet).

Oldini olish:

- ◆ Agar sizda angina bo'lsa, revmatik isitmaning oldini olish uchun penitsillin bilan 10 kun davomida davolaning. Uni to'la 10 kun davomida qabul qilish juda muhim.
- ◆ Bir marta revmatik isitma bo'lgan bola, uning qaytalanishi va yurak shikastlanishining oldini olish uchun tomoq og'rig'inining birinchi belgilaridayoq 10 kun davomida penitsillin qabul qilishi kerak. Agar yurakning shikastlanishiga xos belgilar paydo bo'lsa, u odam balki qolgan butun umri davomida penitsillini ma'lum vaqt davomida yoki Benzilpenitsillin-Benzatinning (632-bet) oylik ukollarini olib turishi kerak bo'ladi. Malakali tibbiyot xodimining maslahatlariga rioya qiling.


BOLALARING YUQUMLI KASALLIKLARI

SUVCHECHAK

Bu yengil virusli infeksiya bo'lib, kasallangan boladan boshqa bolaga yuqqanidan so'ng 2 haftadan 3 haftagacha bo'lgan davr ichida ma'lum bo'ladi.

Belgilari:

dog'lar, suvli po'rsildoqlar va qoraqo'tirlar.



Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

Avval kichkina, qizil, qichishadigan dog'lar paydo bo'ladi. Ular kichkina yoriladigan pufakchalarga va oxiri qora qo'tirlarga aylanadi. Odatda, ular dastlab badanda paydo bo'la boshlaydi va so'ng yuz, qo'l va oyoqlarga ham toshadi. Bir vaqtning o'zida dog'lar, pufakchalar va qora qasmoqli yaralar bo'lishi mumkin. Isitma odatda yengil kechadi.

Davolash:


Infeksiya odatda bir haftada o'tib ketadi. Bolani har kuni iliq suvda sovunlab cho'miltiring. Qichishishni pasaytirish uchun suli (ovsyanka) bo'tqasi suviga namlangan lattani ishlating. Tirnoqlarini juda kalta qilib oling. Agar yaralar infeksiyalansa, ularni toza saqlang. Issiq va ho'l kompresslar qiling, keyin yaralar ustiga antibiotik mazlar, zelyonka yoki yod surting. Bola badanini qashlanishdan saqlashga harakat qiling. Kasallangan bola suvchechak kasalligi bilan og'rimagan homilador ayollardan uzoqroqda bo'lishi va kasalda yaralar to'la tuzalib ketguncha maktabga bormasligi kerak.

QIZAMIQ

Bu o'tkir virusli infeksiya **yaxshi oziqlanmaygan yoki sil bilan kasallangan bolalar uchun, ayniqsa, xavfli**.

Kasallik yuqqandan so'ng 10 kun o'tib, shamollah-dagi kabi isitma, burun oqishi, ko'zlarning og'rib qizarib ketishi va yo'tal bilan boshlanadi

Bolaning ahvoli borgan sari yomonlashib boraveradi. Uning og'zi juda qattiq og'riydi va ichi surib turishi ham mumkin.



2 yoki 3 kundan so'ng og'izda tuz donachalariga o'xshash kichkina dog'lar paydo bo'ladi. Bir yoki 2 kundan so'ng toshmalar paydo bo'ladi—avval quoqlar orqasi va bo'yingga, so'ng yuz va tanaga va oxiri qo'l va oyoqlarga "qizamiq guli" toshadi. Toshma toshib bo'lganidan so'ng bola odatda tuzala boshlaydi. Toshma 5 kun turadi. Teri ostiga qon quyilishi natijasida qora toshmalar paydo bo'ladi (qora qizamiq). Bu — kasallikning ancha og'irligidan dalolat beradi. Tibbiy yordam oling.

Davolash:

- ◆ Bola yotishi, unga ko'p ichimlik va to'yimli ovqatlar berilishi kerak. Agar u quyuq ovqatni yutishga qiyalssa, unga sho'rva singari suyuq ovqatlar bering. Agar chaqaloq emishga qiyalssa, sutni qoshiq bilan bering (236-bet).
- ◆ Iloji bo'lsa, ko'z shikastlanishining oldini olish uchun A Vitamini bering (421-bet).
- ◆ Isitma va og'riqqa qarshi paracetamol bering (yoki aspirin).
- ◆ Agar quloq og'rig'i bo'lsa, antibiotik bering (629-bet).
- ◆ Agar zotiljam (o'pka shamollashi), meningit belgilari yoki quloq, qorin sohasida qattiq og'riq paydo bo'lsa, tibbiy yordam oling.
- ◆ Agar bolaning ichi ketayotgan bo'lsa, unga "Suvni tiklovchi ichimlik" bering (283-bet).

Qizamiqning oldini olish:

Qizamiq juda yuqumli kasallik, unga chalingan bolalar, boshqa bolalar, hatto aka-uka, opa-singillaridan ham uzoqroqda bo'lishi kerak. Ayniqsa, bir qadar oriq, sil va boshqa surunkali kasalliklar bilan og'ruvchi bolalarni ehtiyoj qiling. Boshqa oila bolalari qizamig'i bor xonadonga kirmasliklari kerak. Qizamiqqa chalingan xonadon bolalari o'zlari hali qizamiq bo'limgan bo'lsalar-da, 10 kun davomida matabga, magazinga yoki boshqa jamoatchilik joylariga bormasliklari kerak.

Qizamiq bolalaringizni hayotdan olib ketmasligi uchun, ularning yaxshi ovqatlanayotganligiga e'tibor bering. Bolalaringizni qizamiqqa qarshi 8-14 oyligida emlating.

QIZILCHA

Qizilcha odatda qizamiqdek og'ir emas. 3 yoki 4 kun davom etadi. Toshmalar uncha ko'p bo'lmaydi. Ko'pincha bosh orqasidagi va bo'yin limfa tugunlari shishib, og'riydi.

Bola yotishi va kerak bo'lsa, paracetamol yoki aspirin ichishi kerak.

Homiladorlikning birinchi 3 oyida qizilcha bilan og'rib qolgan ayollar nuqsonli bola tug'ishi mumkin. Shuning uchun, qizilcha bo'lgan yoki bo'lмаганини бilmagan **homilador ayollar, qizamiqning buturiga chal- ingan bolalardan uzoqroqda yurishi kerak**, lekin bu gap ilgari qizamiq bilan og'rib o'tgan xotin-qizlarga taalluqli emas, chunki ular, bu kasallik bilan bir marta og'rib tuzalganlardan so'ng, bu kasallik bilan boshqa og'rimaydilar. Ushbu kasallikkaga qarshi em dorilari mavjud, ammo ularni topish ko'pincha qiyin bo'ladi.

TEPKI


Kasallikning birinchi belgilari kasallik bemor odamdan yuqqandan so'ng 2 yoki 3 hafta keyin paydo bo'ladi. Tepki isitma chiqishi va og'izni ochganda yoki ovqat yeyayotganda og'iz og'rishi bilan boshlanadi. 2 kun ichida, jag' burchagida, qulqoqdan pastroqda yumshoq shish paydo bo'ladi. U ko'pincha avval bir tarafda so'ng ikkinchi tarafda paydo bo'ladi.



Davolash:

Shish 10 kun ichida hech qanday dorilarsiz o'zidan o'zi yo'qolib ketadi. Og'riq va isitmaga qarshi paracetamol yoki aspirin ichilishi mumkin. Bolaga yumshoq va to'yimli ovqat bering va og'zini toza tuting.

Asoratlar:



11 yoshdan yuqori bolalar hamda katta odamlarda birinchi haftadan so'ng qorin og'riши yoki erkaklarda moyak(tuxum) shishib, og'riq turishi mumkin. Bunday shishi bor odamlar harakat qilmasliklari va og'riq, shishni pasaytirish uchun muzli xaltachalar yoki ho'llangan sovuq sochiq qo'yishlari kerak.

Agar meningit belgilari paydo bo'lsa, tibbiy yordamga murojaat qiling (351-bet).

KO'KYO'TAL

Bemordan yuqtirilgandan so'ng bir yoki ikki haftadan so'ng boshlanadi. U tumov vaqtidagidek, isitma, buren oqishi va yo'tal bilan boshlanadi. Ikki haftadan so'ng ko'kyo'tal avjiga chiqadi. Bola yaxshi nafas ololmay, tez-tez yo'taladi, yo'talayotganda yopishqoq shilimshiq chiqargunga qadar yo'taladi, shundan so'ng shovqin bilan o'pkaga havo kiradi. Bola yo'talayotganda tirnoqlari va lablari havo etishmasligidan ko'karib ketishi mumkin. O'pkaga shovqin bilan havo kirgandan so'ng bola qayt qilishi mumkin. Yo'tal xurujlari orasida bola sog'lomga o'xshaydi.



Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

Ko'kyo'tal odatda 3 oy yoki ko'proq davom etadi. Ko'kyo'tal, ayniqsa, 1 yoshga to'limgan **bolalar uchun xavflidir**, shuning uchun bolalaringizni ertaroq emlating. Yosh bolalar yo'talgandan so'ng nafas olganda bunday shovqin bo'lmaydi, shu sababdan, ularning ko'kyo'tal yoki unday emasliklarini bilish qiyin. Agar bolani yo'tal xurujlari bezovta qiladigan, uning ko'zlar shishgan va yashash joyingizda ko'kyo'tal bilan og'rigan bemor bo'lsa, uni **darrov** ko'kyo'talga qarshi davolang.

Davolash:

- ◆ Antibiotiklar faqatgina ko'kyo'talning boshlanishida, yo'tal xurujlari boshlangunga qadar yordam beradi. Eritromitsin yoki T-i-septol ishlating (636-639-betlar). Levomitsetin ham foydali, ammo u xavfliroq. Chaqalolqlar dozasini bilish uchun 639-betga qarang. 6 oylik bo'limgan bolalarni kasallikning birinchi belgilari dayoq davolash juda muhim.
- ◆ Ko'kyo'talning og'irroq hollarida, ayniqsa, yo'tal bola uylashiga xalaqit bersa yoki titroq sababchisi bo'lsa, kortikosteroidlar yordam berishi mumkin.
- ◆ Agar bola yo'taldan so'ng nafas ololmay qolsa, uni o'zingizga qaratib, yopishqoq shilimshiqni barmog'ingiz bilan og'zidan olib tashlang. So'ng shapalog'ingiz bilan orqasiga urib qo'ying.
- ◆ Bola ozib, quvvatsizlanib qolmasligi uchun, uning yaxshi to'yimli ovqat iste'mol qilayotganiga e'tibor bering. Qayt qilganidan so'ng, unga majburan ozgina ovqat va ichimlik bering.

Asoratlari:

Yo'tal natijasida ko'z ichiga qon quyilishi natijasida ko'z oqining qizariq qolishi. Hech qanday davolashning keragi yo'q (420-bet). Agar bola talvasaga tushsa yoki unda zotiljam(pnevmoniya) belgilari paydo bo'lsa, tibbiy yordam oling.

**Barcha bolalarni ko'kyo'taldan saqlang.
Ular 2 oyligida birinchi marotaba emlanganligiga
e'tibor bering.**

BO'G'MA (DIFTERIYA)

Bu ham xuddi shamollahdagidek isitma, bosh og'rig'i va tomoq og'rig'i bilan boshlanadi. Tomoqning orqa qismida va ba'zan burun va lablarda parda paydo bo'lishi mumkin. Bolaning bo'yni shishib ketishi ham mumkin. Og'zidan badbo'y hid keladi.



Agar bolangizda bo'g'ma bor deb taxmin qilsangiz:

- ◆ Uni boshqa odamlardan uzoqroqda, alohida qilib yotqizib qo'ying.
- ◆ Bo'g'maga qarshi maxsus antitoksin mavjud, tibbiy yordamga murojaat qiling.
- ◆ Benzilpenitsillin-Novokain bering. (632-bet)
- ◆ Tomog'ini chayqagani biroz tuzli iliq suv bering.
- ◆ Bemor tez-tez yoki doimiy ravishda issiq suvning bug'idan nafas olsin (312- bet).
- ◆ Agar bola bo'g'ilib, ko'kara boshlasa, tomog'idagi karashni barmog'in-gizga o'ralgan latta bilan ko'chirishga harakat qiling.

Bo'g'ma xavfli kasallik bo'lib, bolaga AKDS emlash yo'li bilan osongina uning oldini olish mumkin. **Bolalaringiz emlanganiga e'tibor bering.**


BOLALAR SHOL KASALLIGI (POLIOMIELIT)

Poliomielit aksari 2 yoshga to'imagan bolalarda uchraydi. Uning qo'zg'atuvchisi oddiy shamollah virusiga o'xshash. Odatda isitma, qayt qilish, ich ketish va muskullar ogrig'iga sabab bo'ladi. Bolalar bir necha kunda to'la sog'ayib ketadilar, lekin tananing biror qismi kuchsizlanib yoki falajlanib qolishi mumkin. Ko'pincha bunday hodisa, bir yoki ikkala oyoqda kuzatiladi. Vaqt o'tgan sari kuchsizlangan qo'l-oyoq juda ozib ketadi va boshqasiga nisbatan sekinroq o'sadi.

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

Davolash:

Kasallik bir boshlansa, hech qanday dori - darmon sholni tuzata olmaydi. (Shunga qaramay, ba'zan yo'qotilgan kuchning bir qismi yoki hammasi sekin - asta qaytishi mumkin.) Antibiotiklar yordam bermaydi. Kasallikning boshida, og'riqni pasaytirish uchun paracetamol yoki aspirin bering va og'riyotgan muskul-larga issiq, kompress qo'ying. Bolani qulay qilib joylashtiring va qarama-qarshi paylarning tortishib qolmaganligiga e'tibor bering. Asta-sekin uning qo'l va oyoqlarini to'grilab qo'ying, bola iloji boricha to'g'ri yotsin. Agar og'riqni to'xtatish uchun kerak bo'lsa, bolaning tizzasi tagiga bolishcha qo'ying, ammo iloji boricha uning oyoqlari to'g'ri holatda bo'lgani ma'qul.




Oldini olish:

- ◆ Poliomielitga qarshi emlash eng yaxshi himoyadir.
- ◆ Bolada shamollash, isitma va poliomielitga xos boshqa belgilar bo'lsa, hech qanday ukol qilmang. O'rta-og'ir falajsiz o'tadigan poliomielit, ukol qilish natijasida og'ir falaj bilan kechadigan poliomielitga aylantirishi mumkin. **Juda zarur bo'lib qolmaguncha bolalarga hech qachon ukol qilmang.**


Bolalarning „poliomielitga qarshi tomchi” bilan 2, 3, va 4 oyliklarida emlanganiga e'tibor bering.

Poliomielit sababli falaj bo'lib qolgan bola
to'yimli ovqatlar yeyishi va qolgan muskullarini
quvvatga kirgizish uchun mashqlar qilishikerak.



Bolaga o'zi yura olgunga qadar yurishga yordam bering. Unga tayanish uchun ko'rsatilgandek 2ta xoda va keyinchalik qo'lтиq tayoqlar qilib bering. Hassa, tayoqlar bolaning yurishiga yordam beradi va uni majruh bo'lib qolishdan saqlaydi.


ODDIY QO'LТИQ TAYOQNI QANDAY YASASH MUMKIN ?



TUG'MA KASALLIK YOKI KAMCHILIKLAR

QUYMICH CHIQIG'I (CHANQOQ-SON BO'G'IMINING
CHIQIB KETISHI)

Ba'zi bolalar quymichi chiqqan holda tug'iladi—son suyagi chanoq suyagiga qo'shilgan bo'g'imdan siljib qoladi. Vaqtida berilgan e'tibor og'riq va oqsoqlanishdan saqlab qoladi. Shu munosabat bilan, oyoqning chanoqdan chiqib qolgan yoki qolmaganligini bilish uchun bolalar taxminan 10 kunli bo'lidan so'ng tekshirilishi kerak.



1. Ikkala oyoqni solishtiring. Agar chanoq chiqqan bo'lsa, chiqqan taraf quyidagilarni ko'rsatadi:

Son chiqqan joyni qisman yopib turadi.

Teri burmalari ham ozroq bo'ladi.

Oyoq qisqaroqdek ko'rindi yoki u g'alati, qiyshiq burchak ostida burilgan bo'ladi.

2. Ikkala oyoqni tizzalari bir-biriga yaqinlashtirilgan xolda ushlang!



va ularni quyidagidek qilib ikki tarafga yozing.



Agar bunda bir oyoq ertaroq to'xtab qolib, irg'isa yoki qirsillasa, bu chanoq chiqqanidan dalolat.

Davolash:

Bolaning tizzalarini baland va kerilgan holda ushlashga harakat qiling.

Yo'rgaklarni qaln taxlab,
quyidagidek qilib ishlatish



yoki (bola uxlayotgan-da) uning oyoqlarini ko'rsatilgandek qilib ilgaklab qo'yish,




Yoki shunday qilish yo'li bilan bunga erishsa bo'ladi.



Lekin fursatni boy bermay, bolalar ortopediga uchrang va uning yo'l- yo'riqlariga amal qiling.

KINDIK CHURRASI (KINDIKNING TASHQARIGA CHIQIB QOLISHI)

Kindik quyidagidek chiqib tursa, buning xavfli joyi yo'q. Hech qanday dori yoki davoning keragi yo'q. Kindikni qattiq qilib bog'lab qo'yish yoki „qorinbelbog'i"ni taqib-yurish yordam bermaydi.



Bunday kindik churrasasi xavfli emas va keyinchalik o'z-o'zidan yo'qolib ketadi. Agar bola 5 yashar bo'lganidan so'ng ham u yo'qolib ketmasa, operatsiya qilish kerak bo'ladi. Shifokor bilan maslahatlashing.


GIDROTSELE YOKI CHURRA NATIJASIDA SHISHIB KETGAN MOYAKLAR

Agar bola yorgog'i (yoki moyakni ushlab turuvchi xaltasi)ning bir tarafi shishgan bo'lsa, bu odatda moyak xaltasi suyuqlik bilan to'lib qolgani (gidrotsele) yoki ichak qovuzlog'inining u yerga kirib qolgani (churra) natijasida kelib chiqqan bo'ladi.

Sababini topish uchun shishgan joyni yorug'likka tutib ko'ring.



Agar yorug'lik undan osonlik bilan o'tsa, bu gidrotsele bo'lishi mumkin.




Bu ko'pincha davolashsiz o'zi yo'qolib ketadi. Agar u bir yildan ortiq tursa, shifokor bilan maslahatlashing.

Agar yorug'lik o'tmasa va bola yo'talgan yoki yig'lagan vaqtida shish kattalashsa, bu churradir.



Churra operatsiya qilinishi kerak (330-bet).

Ba'zan churra yorg'oqning o'zida emas, balki teparoqda, bir tarafda paydo bo'lishi mumkin



Siz shishgan limfa tugundan churranı farqlashingiz mumkin (441-bet), chunki churra bola yig'laganda, to'g'ri qilib ko'tarilganda shishib chiqadi va tinch yotganda yo'qolib ketadi.

AQLI ZAIF, KAR YOKI NOGIRON BOLALAR

Ba'zan ota-onalarning farzandlari aqlan qoloq (zaif), qulog'i kar yoki tug'ma illatli, ya'ni tanasining biror qismida *nuqsoni bor bo'lib tug'iladi*. Buning sababini aniq bilib bo'lmaydi. Hech kim ayblanmasligi kerak. U ba'zan shunchaki bir tasodif bilan ro'y beradi.

Shu kabi tasodiflarni orttiradigan ba'zi omillar bor. **Agar ota-onalar quyidagilardan ehtiyyot bo'salar, bolalarning nuqsonlar bilan tug'lish xavfining oldini olgan bo'ladi.**

1. Homiladorlik davrida **to'yimli ovqatlarning kam iste'mol qilinishi** tug'ma aqliy zaiflik yoki boshqa kamchiliklar sababchisi bo'lishi mumkin.

Sog'lom bolali bo'lish uchun homilador ayollar to'yimli ovqatlarni yetarlicha yeyishi kerak (222-bet).

2. Homiladorlik davrida **yodning yetarli iste'mol qilinmasligi** bolada kretinizm (ruhiy zaiflik) sababchisi bo'lishi mumkin. Bolaning beti shishgan va istarasi hunukroq bo'ladi. U tug'ilgandan so'ng uzoq vaqtgacha terisi va ko'zlar sarg'ayib turishi mumkin. Uning tili tashqariga osilib turadi va peshonasi tukli bo'lishi mumkin. O'zi juda zaif, oz yeydi, kam yig'laydi va ko'p uxmlaydi. Bunday bola aqli zaif, goho qulog'i kar bo'ladi va odatda kindik churrasi bilan tug'iladi. U gapirishni va yurishni boshqa normal bolalarga nisbatan keyinroq boshlaydi.

Kretinizmning oldini olish uchun homilador ayol oddiy tuz o'rniiga yodlangan tuz iste'mol qilishi kerak (249-bet).

Agar bolangizda kretinizm borligiga shubha qilsangiz, darrov shifokor oldiga boring. Maxsus dori (tireoidin)ni bola qanchalik tez ichishni boshlasa, shunchalik normal rivojlanadi.



KRETINIZM

3. Homiladorlik davrida **chekish yoki spirtli ichimliklarni ichish**, bolaning kichkina bo'lib yoki boshqa kamchiliklar bilan tug'ilishiga sababchi bo'ladi (276-278- betlar). **Ichmang va chekmang, ayniqsa homiladorlik davrida.**

4. **35 yoshdan so'ng** onaning nogiron bola ko'rish xavfi ortadi. Kretinizmga o'xshash. Daun xastaligi kabi kasalliklar yoshi katta ayollarning bolalarida uchraydi.

Shuning uchun oilani shunday shaklantiringki, 35 yoshdan so'ng boshqa bola ko'rmaydigan bo'ling (19 - bobga qarang).

5. **Ko'plab dorilar** homilador ayol qornidagi bolaning rivojiga yomon ta'sir ko'rsatadi. **Homiladorlik davrida iloji boricha ozroq va xavfsizroq dorilarni qabul qilishga harakat qiling.**

6. Katta zavodlar yoki industrial (prom) zonalarga yaqin joylarda yashash zaxarli moddalarning ta'sirida bolaning nuqsonlar bilan tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Agar ota-onha bir-biriga qarindosh (masalan xolavachcha, amakivachchalar) bo'lsa, bunda bolalar nogiron yoki aqli zaif tug'ilish xavfi kattaroq. Qarindoshlar o'rtasidagi nikohda, **g'ilaylik, qo'l va oyoqlar barmoqlarining qo'shilib ketgani, maymoqlik, lab va og'iz tirtiqligi ko'proq uchraydi.**

Shunga o'xshash va boshqa muammolarning kelib chiqish xavfini kamaytirish uchun yaqin qarindoshlaringiz bilan turmush qurmang. Agar bitta nogiron farzandingiz bo'lsa, boshqa bola ko'rmaslikka qaror qiling (Oilani rejalashtirish, 20-bobga qarang) chunki tug'ma nuqsonli bola ko'rish ehtimoli takrorlanishi mumkin.

Agar bolangiz illat bilan tug'ilgan bo'lsa, uni bolalar shifoxonasiga olib boring. Ko'pincha biror chorasi topiladi.

♦ G'ilaylik, 417-betga qarang.

♦ Agar barmoqning suyaksiz ortig'i, kichkina qo'shimchasi bo'lsa, uni qo'shilgan joyidan qattiq qilib ip bilan bog'lab qo'ying. U qurib tushib ketadi. Agar u kattaroq va suyakli bo'lsa uni qoldiring yoki jarrohlik yo'li bilan olibtashlang.




♦ Yangi tug'ilgan chaqaloqning oyoqlari ichkariga qayrilgan yoki noto'g'ri shaklda bo'lса, ularni to'g'rilib qo'yishga harakat qiling. Agar buni uddalay olsangiz, ushbu amalni bir kunda bir necha marta takrorlang. Oyoqlar (yoki oyoq) sekin-asta asli holiga keladi.

Agar siz bolaning oyog'ini ega olmasangiz, uni tezda sog'lomlashtirish markaziga olib boring. U yerda oyoq to'g'ri holatda bog'lanib yoki gipslanib qo'yilishi mumkin. Yaxshi natijalarga erishish uchun buni bola tug'ilgandan so'ng birinchi 2 kun ichida qilish kerak.


♦ Agar bolaning labi yoki og'zining tepe qismi (tanglayi) bo'lingan bo'lса, u emishga qiynalishi mumkin va uni qoshiq bilan yoki tomchilab ozirlantirish kerak. Jarrohlik yo'l bilan uning labi va tanglayi bir qadar asliga keltirilishi mumkin. Jarrohlik yo'l bilan labni to'g'rinishishi bola odatda 4 oyligidan 6 oyli bo'lgunga qadar qilingani yaxshi, tanglay operatsiyasi uchun esa bolaning 18 oylik bo'lgani ma'qul.

7.Tug'ruq mahali va undan oldingi qiyinchiliklar bola miyasining shikastlanishiga sabab bo'ladi, bolada **spazm yoki **tirishish hodisalari** bo'ladi.** Agar bola tug'ilib nafas olishga qiyalsa yoki doya, ya'ni akusherka bola tug'ilishidan oldin Oksitotsinni (tug'ruqni tezlashtiradigan yoki onaga „kuch beradigan” dori, 486-bet) ishlatgan bo'lса, shikastlanish xavfi ortadi.



Doya tanlashda ehtiyyotkor bo'ling. Oksitotsin bola tug'ilib bo'lguncha va juda ham zarur bo'lib qolmaguncha doya tomonidan uning ishlatishiga yo'l qo'y mang

Spastik bola (Serebral, ya'ni Miyaga Aloqador Falaj)



Spastik bolaning muskullari tarang va egilmas bo'lib, bola ularni zo'rg'a boshqaradi. Bola beti, bo'yni yoki tanasi bir tomonga burilgan va silkinib yuradigan bo'lishi mumkin. Ko'pincha oyoq muskullari tarang tortib, oyoqlarning qaychi singari chalishib qolishiga sabab bo'ladi.

Bola tug'ilganda odatdagidek yoki bir qadar nimjonroq ko'rinishi mumkin. Katta bo'lgan sari egilmaslik xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi. U aqlan zaif yoki aqli raso bo'lishi ham mumkin.

Miya falaji bola tug'ilishida (bola yetarlicha tez orada nafas olmasa) miyaning shikastlanishi yoki bolalikdagi meningit tufayli kelib chiqishi mumkin.

Bolani spastik qiladigan miya shikastini davolovchi dori yo'q, lekin bolaga alohida e'tibor kerak. Oyoq yoki oyoq tagi muskullar taranglashuvining oldini olish uchun ularni kuniga bir necha mahal **sekin - asta** harakatlantiring va bukib - yozib turing.

Bolalarni yumalashga, o'tirishga, turishga va iloji bo'lsa yurishga o'rgating (565-betdagi kabi). Bolaning aqliy va jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga e'tibor bering. U gapirishga qiyalsa ham miyasi yaxshi bo'lishi va ko'plab narsalarni, agar fursat berilsa, o'rganishi mumkin. **Bolani o'z-o'ziga yordam berishga urgating.**

AYOL O'Z BOLASINING AQLIY ZAIF YOKI TUG'MA ILLATLARDAN XALOS BO'LISHI UCHUN QUYIDAGILARNI QILISHI KERAK:

1. O'zining xolavachcha, amakivachcha yoki yaqin qarindoshiga turmushga chiqishi kerak emas.

2. Homiladorlik davrida iloji boricha yaxshiroq ovqatlanishi kerak: ko'proq loviya, mosh, meva, sabzavotlar, go'sht, tuxum va sut mahsulotlarini iste'mol qilishi lozim.
3. Oddiy tuz o'rniغا yodlangan tuz ishlatishi kerak, ayniqsa, homiladorlik davrida.
4. Chekmasligi va ichmasligi kerak (276-278-betlar).
5. Homiladorlik vaqtida iloji boricha dori qabul qilmasligi kerak (Zarur bo'lib qolsa, faqat xavfsizlarini ishlatishi mumkin).
6. Ko'p kimyoviy moddalar ishlatadigan zavodlarda ishlamang va uyda ham kuchli kimyoviy tozalash vositalaridan foydalanmang.
7. Homilador ayol qizilcha kasalligi bor odamlardan uzoqroqda yurishi zarur.
8. Doyani tanlashda ehtiyyot bo'lismi kerak va uning bola tug'ilishidan oldin Oksitotsin ishlatishiga yo'l qo'ymasligi kerak (486-bet).
9. Agar bir xil tug'ma illatli bolalari bittadan ko'p bo'lsa, boshqa bola ko'rmasligi kerak (511-bet, Oilani shakllantirishga qarang).
10. Yoshi 35 dan o'tganidan keyin bola ko'rmaslikka qaror qilish kerak.

Hayotining Birinchi Oylaridagi Aqli Zaifligi.

Ba'zi sog'lom tug'ilgan bolalar yaxshi o'smaydi. Ular to'yimli ovqatga yaxshi yolchimasligi sababli aqlan va jisman sekin rivojlanadi. Hayotining birinchi oylarida boshqa vaqtga nisbatan bola miyasi eng tez rivojlanadigan davr. Shuning uchun yangi tug'ilgan chaqaloqning yaxshi oziqlanishi juda muhim. Ko'krak suti bola uchun eng zo'r va laziz ovqatdir (Bolalar uchun eng yaxshi ovqat, 502-betga qarang).

BOLALARGA DUNYONI ANGLASHIGA YORDAM BERISH

Bola o'sgan sari asta-sekin o'rgatilgan narsalarni ko'proq idrok eta boshlaydi. Maktabda olgan ilmi va o'rgangan hunarlari unga keyinchalik ko'p narsalarni tushunishga va o'rganishga yordam beradi. Bolaning ko'p narsalarni o'rganib, bilim va ko'nikma orttirishida maktab muhim rol o'ynaydi.

Lekin, bola ko'proq uy, o'rmon yoki dalada atrof-muhitni yaxshiroq bilib oladi. U ko'rish, eshitish va boshqalar qilayotgan narsalarni o'zicha qilib ko'rish, taqlid qilish yo'li bilan o'rganadi. Bolalar ko'proq odamlar aytganlaridan ko'ra ularning harakatlaridan o'rganadilar. **Ezgulik, javobgarlik va baham ko'rish kabi muhim xislatlarni bolaga faqat yaxshi namuna bo'lish yo'li bilan o'rgatish mumkin.**

Bola boshdan kechirish, mustaqil ishlash yo'li bilan ko'p narsalarni o'rganadi. U, garchi xatolar qilsa ham turli narsalarni o'zi qilishni o'rganishi kerak. Bola juda yoshligida uni xavf-xatardan saqlang, lekin uni o'sgan sari o'zini g'amini o'zi yeishiga o'rgating. Unga biroz ma'suliyat bering. Uning qarori siznikidan farq qilsa ham shu qarorini hurmat qiling.



Bola yoshligida faqat o'zini o'ylaydi. Keyinchalik u boshqalarga yordamlashishi va boshqalar uchun bitor narsa qilib berishdan ko'p mamnun bo'lib, zavq olishni o'rganadi. Bolalar yordamini yaxshi qarshi oling va ular qanchalik ahamiyatli ekanligini bildiring.

Bolalar ko'p savol beradilar. Agar ota-onalar, o'qituvchilar bolalarning savollariga javob berish uchun vaqt topsalar, tushunarli va mehribonlik bilan javob bersalar va bilmagan hollarida buni bilmadim, deb ochiq aytsalar, bola savollar berishdan to'xtamaydi va o'sib-ungan sari atrofi yoki qishlog'ini o'rganishning yaxshiroq yo'llarini izlay boshlaydi.

KECHASI SIYIB QO'YISH

Ko'p bolalarda uyquda siyib qo'yish hodisasi uchraydi. Agar sizning bolangiz kechasi siyib qo'yadigan bo'lса-yu, lekin kun davomida tez-tez siyadigan yoki siyayotgan paytda og'riq sezadigan yoki isitma chiqayotgan bo'lmasa, unda siydik yo'llari infeksiyasi bilan bog'liq muammolar bo'lmasa kerak. Shifokor har ehtimolga qarshi siydik analizini qilib ko'rishi kerak.

Kechasi siyib qo'yish aksari bolalarning kechasi qattiq uxbat qolganiga bog'liq bo'ladi. Ular siyishi zarur bo'lgan vaqtda uyg'ona olmaydilar, buning natijasida yotgan joylariga siyib qo'yadilar. Boshqalarda esa qovuq siydikni yetarlicha saqlab tura olmaydigan bo'ladi, shunga ko'ra ular kechasi siymasdan uxbat olmaydi.

Foydali maslahatlar:

- Uxlashidan 3-3,5 soat oldin suyuqliklarni 1-2 piyolaga kamaytirish, so'ng hech qanday suyuqlik ichmaslik. Bola qora choy ichmasligi kerak, chunki u siyishni kuchaytiradi.
- Agar ko'k choyga o'rgangan bo'lsangiz, uni o'rniga qaynoq suv ichishga harakat qiling va buning foydasi bor yoki yo'qligini kuzating.
- Uyquga yotishdan oldin bola, albatta, siyishi kerak. Unga yaxshilab siyib olishi kerakligini aytинг. Bola qovuqdagi hamma siydikni chiqarib yuborishi kerak.
- Bola siyaman deb tashqariga chiqib yurmasligi uchun karavotining yoniga birorta idish qo'ying.
- Bolalarga o'rniga siyib qo'ymasdan uyg'ongan kunlari biror mukofot berish ham yordam beradi. Shokolad yoki biror qimmatbaho narsa berish kerak emas. Oddiy jadval chizilgan qog'ozga bola siymasdan uyg'ongan har bir tunni kulib turgan chehra ko'rinishida belgilab borish yetarli bo'lishi mumkin. Bolaga: "Agar ikki hafta hech siymasdan uyg'onsang, senga ajoyib sovg'am bor", - deb aytинг.

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

- Bolangizni kechasi siygisi kelsa, u hojatxonaga borishi kerakligini eslat-ing.
- Yana bir foydali usul shuki, bolani kun bo'yi uzoqroq siymasdan sabr qilib yurishga o'rgating. Bu qovuq cho'zilib, siyidikni ko'proq saqlay olishiga yordam beradi.
- Bola qovug'ini yaxshiroq boshqara oladigan bo'lishi uchun miyasini rivojlantirishga e'tibor bering. Har bir bola har xil. Ba'zilarda bu muammoni yo'qotish uzoqroq vaqt talab qiladi.